

Qobil farzand – oila quvonchi

Qanday qilib ota-onaning mehrini qozonish, baxtli qilish mumkin? Ey, odobli bola, otang va onang mehrini qozonmoqchi bo'lsang, ularni hurmat qil, zero, mehring zamini hurmatdir. O'zaro hurmati bo'lmagan hayotning taqir kunlari bor. Mehrsiz odam toshbag'irdir, mehru-muhabbat yo'q xonadonga baxt kelmaydi. Ota-onangning so'zini ikki qilmay, zudlik bilan bajarishga yoshlikdan odatlan, ularning mehr qo'rini so'ndirma! Qo'ri o'chgan mehrga qaytadan o't qalash oson ish emas.

OTA-ONANING MEHRINI QOZONISH FARZANDNING BAXTIDIR

Ota-onang ranjiydigan birorta so'z ham aytma, yolg'on so'zlama. Zero, yomon so'z – mehr haroratiga suv sepadi. Shirin so'z ilonni inidan chiqarganidek, muloyim so'z vahshiylarni ulfatga aylantiradi.

Tilingni shirin qil. Zero, yomon tiling shamoli mehr mevalarini to'kadi. Dillari og'riydigan so'zlarni aytma, ishni qilma. Birovni dilini bir marta og'ritib, ketidan yuz marta yaxshilik qilsang ham, o'sha bir ranjning yarasi bitmagay, chunki o'qni yaradan chiqarib olsa bo'ladi, ammo ozor dilda qoladi.

Ota-onangni senga bo'lgan ishonchini oqla, umidini puchga chiqarma. Zero, mehrning tayanchi ishonchdir.

Aka-uka, opa-singillar bilan sen-menga borma! Ular bilan doimo maslahat bilan ish tut. Iloji bo'lsa yordam ber. Zero, farzandlarning o'zaro muhabbati, ularning baxti-iqbolini ota-onaning sog'ligiga, ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Farzand ota-onaning umriga umr qo'shib ham biladi, o'lmasdan oldin o'ldirib ham biladi.

Mehr – oilaning quvvati va joni, mehr yurak qulfini ham ocha oladi. Mehr o'ga – inilarni birlariga tutashtiruvchi qal'a!

Og'ayni, qarindosh urug'larga bevafoqlik qilma! Ulardan ehsoningni ayama. Bevafoqlikni ko'rgan mehr darz ketadi. Ota-onang vafotidan keyin ularning vasiyatlarini bajo keltir. Unutmaginki, ota-ona mehri o'zidan so'ng ham nur qoldiradi. Va'da qilsang va'dangga vafo qil. To'rt narsa ikki jahonning sifati va abadiy murodlaridandir: Xudo va Payg'ambarlarga bo'ysunish; Ota-onani rozi qilish; Olimu donishmandlarga xizmat qilish; Xudoi taolo tomonidan yaratilganlarga shafqat.